

“KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI”

Qudratov Javohir Komilovich

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti “Xalqaro huquq” fakulteti 3-kurs talabasi Telefon raqami:+998(91)9598597 E-mail:qudratovjavohir201@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Konstitutsiyaning jamiyat hayotidagi o‘rni va roli, davlatning asosiy qonuni sifatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashi, ularning burch va majburiyatlarini o‘zida to‘la aks ettirishi, huquqiy bilim va madaniyat rivojidadagi muhim ahamiyati haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *inson huquqlari va erkinliklari, jamiyat, yangi O‘zbekiston, inson qadri, Konstitutsiya, rivojlangan davlatlar, huquq tizimi, siyosiy qarashlar, ijtimoiy hayot. Burch va majburiyat.*

Аннотация: *В данной статье говорится о роли и значении конституции в жизни общества, основного закона государства, обеспечивающего права и свободы граждан, полностью отражающего их обязанности и ответственности, а также о его значении в развитии правовой культуры.*

Ключевые слова: *права и свободы человека, общество, новый Узбекистан, человеческое достоинство, Конституция, развитые страны, правовая система, политические взгляды, общественная жизнь. Долг и ответственность.*

Annotation: *This article talks about the role and significance of the constitution in the life of society, the fundamental law of the state, ensuring the rights and freedoms of citizens, fully reflecting their duties and responsibilities, as well as its significance in the development of legal culture.*

Key words: *human rights and freedoms, society, new Uzbekistan, human dignity, Constitution, developed countries, legal system, political views, social life, duty and obligation.*

Yangi O‘zbekistonni bunyod etish yo‘lida amalga oshirilayotgan islohotlarning maqsadi "Inson qadri uchun" hamda "Davlat - inson uchun" tamoyillarini real hayotimizga tatbiq etishdan iborat ekanini shu o‘rinda yana bir bor ta’kidlamoqchiman. Bu masalada qonunchilikka kiritilayotgan yangiliklar, o‘zgartirish va qo‘shimchalar demokratik jarayonlarning mustahkam huquqiy bazasini yaratmoqda.

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti **Sh.M.Mirziyoyev***

Bugungi zamonaviy davrda inson huquqlari har bir alohida shaxsning qadrigimmi va erkinliklarini o‘zida ifoda etadi. Shuni ta’kidlash lozimki, yangilanayotgan O‘zbekistonning asosiy qonuni bu uning Konstitutsiyasi hisoblanadi. Shuningdek, davlatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayotining barcha jabhalarini tartibga solib turuvchi muhim hujjatidir. Huquqiy davlat yaratish sari rivojlanib borayotgan

davlatimizda huquq ustuvorligini ta'minlash muhim vazifalardan sanaladi. Yangi qabul qilingan Konstitutsiya o'zining mukammalligi va bugunning dolzarb muammolariga yechim topa olishi bilan ahamyatga molik. Har bir davlat uchun o'z fuqarolarining manfaatlari, ularning huquqlari, ijtimoiy holati haqida qayg'urishlari lozim va shart.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining V bob II bo'lim 19-moddasida "O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar".²⁸

O'z huquq, erkinlik va burchlarimizni bilishimiz uchun O'zbekiston Respublikasi qonunlarini o'rganishimiz talab etiladi. Shu bilan birga, qonunlarni bilish nafaqat huquq va erkinliklar balki burch va majburiyat ham yuklaydi. Davlatning oliy maqsadi bu fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, ba'zi fuqarolarda huquqiy bilimning yetishmasligi hamda ehtiyotsizligi natijasida o'zi bilmagan holda huquqbuzarliklar sodir etish holatlari kuzatilmoqda lekin so'nggi yillardagi o'zgarishlar bu kabi holatlarni bir qadar yengillashtirdi.

Jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar va keyinchalik yuz berishi mumkin bo'lgan voqea va hodisalar jamiyatning asosiy bog'ini hisoblangan xalqning huquqiy bilimi bilan baholanadi. Bunday hollarda xalq qanchalik huquqiy va madaniy jihatdan boy bilimga ega bo'lsa jamiyat va davlat ham shunchalik darajada tez rivojlanadi. Bu ikki tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlatning suveren va mustaqil ekanligi keltirib o'tilgan. Shuningdek fuqarolar ham o'z taqdirini o'zi belgilashi, huquq va erkinliklaridan oqilona foydalanishlari ta'kidlangan. So'nggi yillarda mamlakatimizda madaniyat va huquq sohasida ko'plab islohotlar olib borildi. Pirovardida islohotlar besamar ketmadi va ajoyib yutuqlarga erishildi.

Konstitutsiya - dogma, ya'ni qotib qolgan, yangilash mumkin bo'lmagan qoida va me'yorlar to'plami emas. Fransiyalik taniqli davlat va jamoat arbobi Sharl de Goll bu haqda shunday degan: "Solon aytganidek, Konstitutsiya bir xalqqa muayyan bir davrda yaxshi. Uni jonsiz jasad kabi mo'miyolashtirmaslik lozim".²⁹

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi shakllanish bosqichlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak birinchi navbatda Konstitutsiyamizning qabul qilinishidan boshlaymiz. Mustaqilligimizning ilk yillarida qabul qilingan asosiy qonunimiz dunyoning 97 ta davlati konstitutsiyaviy tajribasi asosida, ularning ilg'or g'oyalarini o'zida mujassam etgan holda va dunyoning eng rivojlangan davlatlarining mutaxassislarining xulosasidan so'ng 1992-yil 8-dekabrda qabul qilindi. Mustaqillikdan so'ng tashkil topgan yangi suveren davlatning ushbu sanadan boshlab

²⁸Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asari. "O'zbekiston". - Toshkent, 2023.

mustahkam huquqiy poydevori o'rnatildi. Bosh qonunimiz qabul qilingan kundan boshlab hozirgacha 20 ga yaqin o'zgartirishlar kiritildi. Bundan ko'zlangan maqsad zamonaviy tendensiyalarga moslashtirish, davlat tuzilmalarida turli xildagi o'zgarishlarni amalga oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini yanada mustahkamlash hisoblanadi.

Yangi O'zbekistondagi konstitutsiyaviy islohotlarni ko'plab amalga oshirishining yana bir asosiy sabablaridan biri Prezidentimiz tashabbusi bilan qabul qilingan uchta taraqqiyot strategiyasini kelirish mumkin. Shulardan birinchisi, "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" da O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari yanada isloh qilindi. Ikkinchisi, "2022-2026-yillarni o'z ichiga olgan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" asosida ko'plab konstitutsiyaviy o'zgarishlar amalga oshirilishi ta'kidlandi. Uchinchisi, "O'zbekiston – 2030 strategiyasi" doirasida yangilangan asosiy qomusimizni jamiyat hayotidagi tutgan o'rnini yanada oshirish uchun yangidan-yangi ishlar rejalashtirilmoqda. Bu kabi o'zgarishlarning asosiy sababchisi davlatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Agar chuqur xulosa qiladigan bo'lsak prezidentimizning 2022-yilda nashr qilingan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobidagi alohida Konstitutsiyaga bag'ishlangan qismi "Konstitutsiyaviy islohotlar – Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lidagi obyektiv zarurat" deb nomlangan. Unda saylovoldi uchrashuvlari paytida xalq bilan muloqot jarayonida o'rtaga tashlangan muhim taklif va tashabbuslar, bugungi taraqqiyotimiz va istiqbol rejalariga oid xulosalar o'z aksini topgan.³⁰

Konstitutsiyaning hayotimizda tutgan o'rni nihoyatda kattadir. Har bir fuqaro bu narsani anglagan holda Konstitutsiya bergan huquq va erkinliklarilardan oqilona foydalanib burch va majburiyatlarini to'la-to'kis ado etishlari talab etiladi. Rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir fuqaro fuqaro o'z hayoti daxlsizligini Konstitutsiyasiz tasavvur eta olmaydi chunki hech bir qonun Konstitutsiyachalik fuqarolarning huquq va erkinliklari daxlsizligini ta'minlay olmaydi.

Barchamiz kundalik hayotimizda Konstitutsiya belgilab bergan normalarga tez-tez murojaat qilib turamiz chunki aynan qomusimizdagina insonning haq-huquqlarini himoya qilish ishonchli ravishda kafolatlangan. Shuning uchun Konstitutsiya qoidalarini puxta o'rganish, uni bilish va hurmat qilish zarur. Yangi O'zbekistonda erkin va mustaqil fikrlaydigan, uning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etadigan, o'z so'zini aytishga qodir yoshlarimiz uchun ham Konstitutsiya kundalik hayotlarida asosiy dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANAYOTGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" asari. "O'zbekiston". – Toshkent, 2023

³⁰ Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi rasmiy veb-sayti

2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 17-oktyabrda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi <http://nhrc.uz/oz/news/m14205>

3. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-aprelda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>

4. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi rasmiy veb-sayti. <http://nhrc.uz/oz/news/m14205>

5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: O‘zbekiston, 2020.